

**Davlat organlari va mansabdor shaxslarning ma'muriy sud jarayonlaridagi
huquqiy maqomi: qiyosiy tahlil**

Madrahimova Guljahon Ruzimboy qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: guljahon_20@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston, Rossiya va Germaniya tajribasi asosida davlat organlari va mansabdor shaxslarning ma'muriy sud jarayonlaridagi huquqiy maqomi tahlil qilinadi. Ma'muriy sudlar davlat hokimiyati ustidan nazorat mexanizmi sifatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qiladi. Germaniyada sudlar mustaqilligi va davlat qarorlarining qonuniyligini tekshirish orqali fuqarolarga ishonch beradi, Rossiyada esa normativ asos keng bo'lsada, amaliyotda davlat manfaatlari ustuvorlik qiladi. O'zbekistonda 2018-yilda qabul qilingan Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksi fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va davlat organlarining javobgarligini kuchaytirishga qaratilgan.

Аннотация: В статье на основе опыта Узбекистана, России и Германии анализируется правовой статус государственных органов и должностных лиц в административных судебных процессах. Административные суды выступают механизмом контроля над государственной властью и обеспечивают защиту конституционных прав граждан. В Германии независимость судов и проверка законности решений государства укрепляют доверие граждан, тогда как в России, несмотря на развитую нормативную базу, на практике преобладает приоритет государственных интересов. В Узбекистане принятие в 2018 году Кодекса административного судопроизводства направлено на защиту прав граждан и усиление ответственности государственных органов.

Abstract: This article analyzes the legal status of state bodies and officials in administrative court proceedings, based on the experience of Uzbekistan, Russia, and Germany. Administrative courts serve as a mechanism of control over state power and protect citizens' constitutional rights. In Germany, judicial independence and the review of state decisions strengthen public trust, while in Russia, despite a broad normative framework, state interests often prevail in practice. In Uzbekistan, the

adoption of the Code of Administrative Court Proceedings in 2018 was aimed at safeguarding citizens' rights and reinforcing the accountability of state bodies.

Kalit so'zlar: ma'muriy sud, huquqiy maqomi, davlat organlari, mansabdor shaxslar, javobgarlik, konstitutsiyaviy tartib, fuqarolarning huquqlari, O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya

Ключевые слова: административный суд, правовой статус, государственные органы, должностные лица, ответственность, конституционный порядок, права граждан, Узбекистан, Российская Федерация, Германия.

Keywords: administrative court, legal status, state bodies, officials, accountability, constitutional order, citizens' rights, Uzbekistan, Russian Federation, Germany.

KIRISH Davlat organlari va mansabdor shaxslarning ma'muriy sud jarayonlaridagi huquqiy maqomi zamonaviy huquqiy davlat qurilishida muhim masalalardan biridir. Chunki ma'muriy sudlar fuqarolar va davlat o'rtasidagi nizolarni hal qilishda asosiy mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Ma'muriy adolat institutining rivojlanishi davlat hokimiyatining javobgarligini ta'minlash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini kafolatlash hamda davlat organlarining faoliyatini qonuniy asosda nazorat qilish imkonini beradi. Bu jarayonda Yevropa davlatlari tajribalarini o'rganish samarali o'zgarishlarga olib keladi. Misol uchun Germaniya tajribasida, ma'muriy sudlarning vazifasi davlat organlari faoliyatini "konstitutsiyaviy tartib doirasida ushlab turish"dan iboratligini ko'rish mumkin. Bu yondashuv davlatning o'zboshimchalik bilan qarorlar chiqarishining oldini oladi va mansabdor shaxslar ustidan samarali sud nazoratini ta'minlaydi.

Rossiya Federatsiyasida ham bu masala alohida e'tibor markazida turadi. 2015-yilda qabul qilingan Ma'muriy sud protsessual kodeksi davlat organlari va mansabdor shaxslarning sud jarayonidagi maqomini belgilab berdi. Professor M.K. Treushnikov fikriga ko'ra "ma'muriy sud ishi - bu bir tomondan davlatning manfaatlari, boshqa tomondan fuqarolarning huquqlari to'qnashadigan soha"dir[1]. Demak, bu tizimning vazifasi ikki tomon manfaatini teng darajada ko'rib chiqish va qonuniy muvozanatni ta'minlashdan iborat.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. 2017-yildan boshlab ixtisoslashgan ma'muriy sudlarning tashkil

etilishi va 2018-yilda Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning qabul qilinishi bu borada tub burilish yasadi.

ASOSIY QISM 2018-yil 1-apreldan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi" mamlakatda fuqarolarning davlat organlari va mansabdor shaxslar qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligidan himoya qilish huquqini ta'minlovchi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi[2]. Kodeksning yaratilishi Konstitutsiyaning 44-moddasi va 55-moddasida belgilangan fuqarolarning huquqlarini sud orqali himoya qilish kafolatlarini amalda ro'yobga chiqarish ehtiyojidan kelib chiqqan[3]. Kodeksning eng muhim jihati - fuqarolar va tadbirkorlarning davlat idoralari bilan bo'lgan huquqiy munosabatlarida tenglikni ta'minlash hamda davlatning "javobgarlik subyekti" sifatida sud oldida javob berishini mustahkamlashdir.

Kodeksga ko'ra, davlat organlari va mansabdor shaxslar ma'muriy sud jarayonida javobgar sifatida qatnashadilar. Bu ularning huquqiy maqomini belgilovchi asosiy jihat hisoblanadi. Chunki da'vo ko'pincha fuqaro yoki tadbirkorning huquqini buzgan yoki cheklagan davlat qarori, farmoyishi, harakati yoki harakatsizligiga nisbatan kiritiladi.

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning huquqiy maqomi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

Javobgarlik prinsipi - ular qabul qilgan qarorlar qonuniyligi va asosiligi uchun sud oldida javob beradi.

Protsessual huquqlar - sud majlisida dalillar keltirish, izoh berish, guvohlarni chaqirishni so'rash huquqiga ega.

Majburiyatlar - sudga talab qilingan hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etish, qonunga xilof qarorlarini bekor qilish yoki o'zgartirish choralari ko'rish.

Sud nazorati ostida bo'lish - ularning qaror va harakatlari ustidan shikoyat qilish imkoniyati fuqarolarga beriladi va sud yakuniy hakam sifatida qaror chiqaradi.

Ma'muriy sudlov institutlari bugungi kunda huquqiy davlatning eng muhim tayanchlaridan biri hisoblanadi. Ularning vazifasi fuqarolarning davlat hokimiyati organlari ustidan huquqiy nazoratini ta'minlash, mansabdor shaxslarning faoliyatini qonuniylik mezonlari asosida baholashdir. O'zbekiston, Rossiya va Germaniya tajribalarini qiyosiy tahlil qilish, nafaqat milliy huquqiy tizimlarni takomillashtirish, balki umumiy demokratik tamoyillarning qanday hayotga tatbiq etilayotganini ko'rsatib beradi.

Rossiyada ma'muriy sud ishlarini yuritish tartibi 2015-yilda qabul qilingan "Ma'muriy sud protsessual kodeksi" asosida amalga oshiriladi[4]. Unda ishtirokchilar quyidagicha belgilanadi:

- taraflar - da'vogar va javobgar (odatda davlat organi yoki mansabdor shaxs),
- manfaatdor uchinchi shaxslar,
- prokuror.

Rossiya qonunchiligida ham davlat organlari va mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan shikoyat qilish imkoniyati keng berilgan. Ularning huquqiy maqomi fuqarolar bilan teng deb belgilangan, biroq amaliyotda sudlar ko'pincha davlat pozitsiyasini himoya qilishga moyillik ko'rsatadi. Shu bilan birga, oxirgi yillarda Rossiyada elektron sud jarayonlari, masofaviy eshituvlar va raqamli hujjat aylanishi joriy etildi. Professor V.V. Yarkovning "Ma'muriy protsessual kodeksning vazifasi - davlat hokimiyati ustidan sud nazoratini kuchaytirish va fuqarolarga qulay huquqiy himoya mexanizmlarini yaratishdir" degan fikri ma'muriy adolat tizimining eng muhim tamoyillarini aniq ifodalaydi[5]. Davlat hokimiyati organlari ustidan sud nazoratining kuchayishi - bu huquqiy davlat va konstitutsionlik tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarishning zarur sharti hisoblanadi.

Germaniyada ma'muriy sudlar juda qadimiy an'anaga ega. 1960-yildagi Ma'muriy sud tartib-qoidalari to'g'risidagi qonun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Bu qonunga ko'ra, davlat organlari va mansabdor shaxslar fuqaro da'vosiga javoban sud oldida javobgarlikka tortiladi. Ularning maqomi quyidagicha belgilanadi:

- ular ham taraf sifatida qatnashadi,
- qarorlari qonuniyligi bo'yicha isbotlash yukini ko'taradi,
- sud oldida teng huquq va majburiyatlarga ega.

Germaniyada ma'muriy sudlarning huquqiy ahamiyati fuqarolarning davlatga nisbatan ishonchini tiklash vositasi sifatida faoliyat yuritadi. Sud nazorati davlat hokimiyati ustidan muvozanatni ta'minlaydi.

O'zbek qonunchiligiga ko'ra sud qarorlari barcha davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Ma'lumki, sud hokimiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 130-140-moddalarida o'z aksini topgan[6]. Masalan, Ma'muriy kodeksning 16-moddasiga binoan qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari "barcha davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir"[7]. Agar davlat organi yoki mansabdor shaxs

sud qarorini bajarmasa, unda mas'ul bo'lib, garchi jazosi oddiy javobgar kabi sud hujjatlarini bajarmaslik bo'yicha javobgarlik mavjud bo'lsa-da, Ma'muriy kodeksda belgilangan holatlarda sud jarimasi ham qo'llanadi. Qolaversa, sud jarimalari respublika byudjetiga tushishi lozimligi ko'zda tutilgan mansabdor shaxs jarimasi ularning shaxsiy mablag'idan undiriladi. Bundan tashqari, sudyalarning fikricha ko'pincha fuqaroning o'z talabini isbotlab berish imkoniyati mansabdor shaxsning cheklangan bo'lgani uchun, fuqarolar va davlat organlari o'rtasida muvofiqlashtirish yuzaga keladi. Masalan, Toshkent shahar sudi sudyasi G'.Mashkurov fikriga ko'ra "fuqaroning o'z da'volarini isbotlash imkoniyatlari mansabdor shaxsning nisbatan cheklanganligi" fuqarolar bilan mansabdorlar o'rtasida tengsizlikni paydo qiladi[8]. Ushbu fikr amaliy sud jarayonlarida uchraydigan eng muhim muammolardan birini ochib beradi. Chunki ma'muriy sud ishlarida fuqarolar ko'pincha huquqiy bilim, resurs va hujjatlarni yig'ish imkoniyatida mansabdor shaxslarga nisbatan zaifroq bo'ladi. Shunga qaramay, so'nggi yillardagi islohotlarda ma'muriy sudlar fuqarolarning huquqini mustahkamlashga qaratildi.

Qiyosiy jihatlardan tahlil qilinganda Davlat organlarining maqomi - har uchala mamlakatda ham ular javobgar sifatida qatnashadi. Germaniya va Rossiyada isbotlash yuki ko'proq davlat zimmasiga yuklatilgan, O'zbekistonda esa bu tajriba asta-sekin shakllanmoqda. Normativ asos jihatdan O'zbekistonda 2018-yilda qabul qilingan kodeks nisbatan yangi bo'lsa, Rossiyada 2015-yildan, Germaniyada esa 1960-yildan buyon mukammal tizim sifatida amal qiladi. Amaliyotga qaralsa Germaniyada sudlar fuqarolar foydasiga mustaqil qaror chiqarish bilan mashhur. Rossiyada ko'proq davlat manfaatlari ustuvor bo'lsa, O'zbekistonda esa islohotlar davom etmoqda va sudlarning mustaqilligi bosqichma-bosqich kuchaymoqda. So'nggi yillarda uchala mamlakatda ham elektron sud tizimi, onlayn eshituvlar va masofaviy jarayonlar rivojlanmoqda.

O'zbekistonning Ma'muriy sud ishlarini yuritish kodeksi Rossiya va Germaniya tajribalaridan o'rnatib olib ishlab chiqilgan bo'lib, unda davlat organlari va mansabdor shaxslarning sud oldida javobgar subyekt sifatida qatnashishi huquqiy davlatning muhim belgisi hisoblanadi. Germaniya tajribasi sud mustaqilligi va fuqarolar foydasiga qarorlar chiqarish bo'yicha eng ilg'or bo'lsa, Rossiyada normativ asos keng, biroq amaliyotda davlatning ta'siri kuchli. O'zbekiston esa yangi islohotlar orqali davlat-huquqiy munosabatlarida shaffoflik va javobgarlikni mustahkamlash yo'lidan bormoqda.

Xulosa

Ma'muriy sud institutining rivojlanishi huquqiy davlat tamoyillarini amalda ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning 2018-yildagi Ma'muriy protsessual kodeksi davlat organlari va ularning mansabdor shaxslarini sud oldida javobgar subyekt sifatida belgilaydi va qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha uchun majburiy ekanini ta'kidlaydi. Bu tartib-davlat organlarining qonunga xilof qarorlariga nisbatan samarali sud nazoratini, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarining himoyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil jihatidan Germaniyada ma'muriy sudlar mustaqil va fuqarolar foydasiga qarorlar chiqarishi bilan ajralib turadi, Rossiyada esa ko'proq davlat manfaatlari ustuvorlik qiladi. Shu bilan birga, so'nggi islohotlar (masalan, elektron sud va masofaviy eshituvlar) sud jarayonlarini shaffof va fuqarolar uchun qulay qilishga qaratilgan. Umuman olganda, uchala mamlakat tajribasi ma'muriy sudlar orqali davlat organlari ustidan samarali nazorat o'rnatish va huquqiy davlat prinsiplarini kuchaytirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Треушников М.К., Курс гражданского процессуального права, Москва: Статут, 2017, с. 312
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. 2018. <https://lex.uz/docs/-3527353>
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 44-modda va 55-modda. <https://lex.uz/docs/-6445145>
4. Российская федерация федеральный закон кодекс. 2015. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_176147/
5. Yarkov V.V., Административное судопроизводство в России, Москва: Статут, 2016, с. 45. <https://library.rosvuz.ru/files/library/book/254abeae1075c7fbe8900f265c322217.pdf>
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. XXIII bob. Sud hokimiyati. <https://lex.uz/docs/-6445145#-6446096>
7. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. Ma'muriy sud ishlarini yuritish prinsiplari. 16-modda. <https://lex.uz/mact/-3527353#:~:text=16>
8. G'. Mashkurov. Mansabdor shaxs va oddiy fuqaro o'rtasidagi tengsizlik yo'qotiladi. 2022. <https://www.xabar.uz/uz/huquq/>